Bu jarayonni to'liq amalga oshirish uchun baholashning eng asosiy va ko'nikmalarni shakllantiruvchi jarayon **JORIY NAZORATda** o'quvchilarning nafaqat til ko'nikmalariga, ularning milliy g'urur, Vataniga, ota-onasiga bo'lgan muhabbat, o'z kasb sohasida o'rganayotgan bilimlari hisobga olinadi. O'MKHT tizimi chet tili bo'limida yaratilgan testlar banki orqali o'qituvchilar va monitoring guruhi, attestatsiya va boshqa turli ichki va tashqi nazorat turlarini, olimpiada va boshqa konkurslarni amalga oshirib borishi kerak bo'ladi. Ularda keltirilgan testlar javoblari orqali o'quvchi va o'qituvchilar o'z ko'nikmalarini doimiy ravishda shakllantirib borish imkoni tug'iladi.

Akademik ko'nikmalarning natijalari quyidagi jadval asosida ko'rsatilgan tartibda baholanadi (4-jadval)

**Joriy nazoratda akademik ko'nikmalar: kurslar kesimida yakuniy natija ishlarini ballardan bahoga aylantirish tartibi**

**Jadval 4**

| **Nazorat turi** | **Savollar soni** | **Baho** |
|---|---|---|
| | **30** | |
| **Tinglab tushunish, O'qish** | **10-15** | **3** |
| | **16-24** | **4** |
| | **25-30** | **5** |

## NEMIS TILI O'QUV FANINING MODDIY – TEXNIK TA'MINOTI

**Techniche Geräte, die im Deutschunterricht verwendet werden sollen.**

**1. Laptop oder computer (PC).**

**2. Sprachlabor.**

**3. Projektor.**

**4. Folien.**

**5. Audios des Schülerbuches und des Arbeitsbuches auf CD oder DVD**

Didaktikvositalar

- jixozlar va jihozlar, moslamalar: elektron doska-Hitachi, LSD monitor, elektron kursatgich (ko'rsatgich).

- video-audio uskunalar: video audio yozuvchisi, mikrofon, dinamik.

- kompyuter multimediyasi: kompyuter, Dell proyektori, DVD disk, veb-kamera, videokamera (ko'zdan kechirish teshigi).

## TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

**Die Liste der Literatur, die bei der Erstellung dieser methodischen Lektionssammlung verwendet wurde.**

**Wesentliche Literatur:**


1. Swerlowa Olga, Deutschprofis B1 Klett Verlag 2015
2. Swerlowa Olga, Deutschprofis B1 Ubungsbuch Klett Verlag 2015
3. Koithan Ute, Schmitz Helen u.a. Aspekte Junior. Kursbuch B1 plus. Klett Verlag. 2016
1. Karimov I.A. Egali yurt erkini bermas. T.9. -T.: «O'zbekiston », 2001.
2. Karimov I. Biz tanlagan yo'l-demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-jild. -T.: "O'zbekiston", 2003.
3. Karimov I.A. SHanxay hamkorlik tashkiloti sammitidagi nutq // Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. – T.: O'zbekiston , 2003. 11-jild.
4. Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch - qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq. T.12. -T.: «O'zbekiston », 2004.
5. Karimov I.A. El-yurtga halol, vijdonan xizmat qilish har bir rahbarning muqaddas burchi. T.12. -T.: O'zbekiston , 2004.
6. Karimov I.A. Qonun va adolat ustuvorligi faoliyatimiz mezoni bo'lsin. T.12. -T.: O'zbekiston , 2004.
7. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamji-hatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. -T.12. -T.: «O'zbekiston », 2004. - 400-b.
8. Karimov I.A. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini kat'iyat bilan davom ettirishdir. "Milliy tiklanish" gazetasi, 2007 yil, 12 dekabr soni.
9. Karimov.I.A.O'zbekiston -mutaqillikka erishish ostonasida. –T. «O'zbekiston». 2011 y.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida". "Xalq so'zi", 2011 yil 21 may, №100.
11. Braun-Podeschwa Julia, Charlotte Habersack, Pude Angele. Menschen. Kursbuch \Arbeitsbuch B 1.1 Hueber Verlag 2016
12. Braun-Podeschwa Julia, Charlotte Habersack, Pude Angele. Menschen. Kursbuch \Arbeitsbuch B1.2 Hueber Verlag 2016
13. Witzlinger Hans . Deutsch Aber Hallo. Grammatikübungen A2
14. Jin Friederike, Voß Ute . Grammatik Aktiv. Deutsch als Fremdsprache.A1- B1. Cornelsen Verlag. 2013
15. Buscha Anna, Szita Szilvia. Begegnungen B1+. Schubert Verlag. 2019
16. Buscha Anna und Raven Susanne. Erkundungen Deutsch als Fremdsprache B2. Integriertes Kurs- und Arbeitsbuch. Schubert Verlag 2017
17. Balser Aliki, Kastanis Jo Glotz u.a Zertifikat B1 neu. Hueber Verlag 2014
18. Gerbes Johannes, van der Werff Frauka, Fit fuers Zertifikat B1. Hueber Verlag.


**Webseiten, die beim Deutsch lernen helfen**

1. Linguee.com
2. Leo.org
3. Goethe.de
4. DW.com
5. YouToube.com
6. Twitter.com

## MUNDARIJA


| | |
|---|---|
| 1. | Xitoy tili o'quv fanining maqsadi va vazifalari, o'zlashtirish natijasiga qo'yiladigan talablar |
| 2. | Xitoy tili o'quv fanining mashg'ulot turlari bo'yicha mavzular rejasi va mazmuni |
| 3. | Xitoy tili o'quv fanining moddiy-texnik ta'minoti |
| 4. | Xitoy tili fanning o'zlashtirish darajasini nazorati va baholash |
| 5. | Tavsiya etilgan adabiyotlar va saytlar ro'yxati |


## KIRISH

"Ta'lim to'g'risida"gi O'zbeiston Respublikasi Qonuni va Kadrlar tayyoralsh milliy dasturi qoidalariga muvofiq holda ta'limning milliy tajribasini tahlil etgan holda ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil rvishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarnig yangi avlodini shakllantirish, o'quvchilarning tegishli mutaxassisliklar bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida o'qishni davom ettirishlari uchun zarur va yetarli bo'lgan, chuqurlashtitilgan nazariy va amaliy bilimlarni berilishini ta'milash maqsadida hamda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 16-apreldagi "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtish va ilmiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4680-son qarorida belgilab o'tilgan O'zbekistonning Sharq mamlakatlari bilan ikki va ko'p tomonlama siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi malakali mutaxassislarni tayyorlash, jahonda ro'y berayotgan jarayonlarni to'g'ri talqin qlia oladigan tahliliy tafakkurga ega kadrlarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash vazifalari maqsad qilib berildi.

Davlatimizning xorijiy sharq mamlakatlari bilan ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy aloqalari mustahkamlanib borayotgan bir paytda chet tillarini, jumladan, sharq tillarini mukammal biluvchi, salohiyatli filologlar, tarjimashunoslar, sinxron-tarjimonlarni yetishtirib berishda akademik litseylarning xorijiy filologiya yo'nalishidagi sharq tillarini o'qitishga e'tibor qaratish va ta'lim sifatini oshirish orqali erishish mumkin. Bunda O'zbekistonning uzluksiz ta'lim tizimiga chet tillarini o'rgatish bo'yicha xalqaro ta'lim standartlarini joriy qilish va "chet tillarini egallashning Umumevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish, baholash" darajalariga asoslanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqsadlardan kelib chiqqan holda xitoy tili fanidan tuzilgan ushbu dastur akademik litseylarda xorijiy til xitoy tili bo'yicha xorijiy tillar yo'nalishida ta'lim berayotgan o'qituvchilarga mo'ljallangan bo'lib, ikki yil davomida o'tiladigan nazariy, amaliy va mustaqil dars mashg'ulotlarning mazmunini o'z ichiga oladi.

Dasturni tuzishda mamlakatimizda so'nggi yillarda sharq tillarini o'qitish borasida olib borilayotgan davlat siyosati bilan bog'liq o'zgarish va islohotlar hamda talablar ham e'tiborga olindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4680-sonli qarorida ko'rsatib o'tilgan sharqshunoslik sohasida xalqaro standartlarga muvofiq kompleks bilimlarga ega malakali kardlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash, ilm-fanni jadal rivojlantirish, professor-o'qituvchilarning salohiyati, pedagigik mahoratini uzluksiz oshirib borish, talaba-yoshlarni sharqona qadriyatlar asosida tarbiyalashni takomillashtirish talablariga muvofiq ishlab chiqildi. O'quv dasturida o'quvchilarning sharq tilini o'zlashtirish darajasi **"A1 boshlang'ich"** bosqichidan boshlab **"B1 tilni mustahkam egallash va erkin muloqot qila olish"** bosqichigacha bo'lgan bilim va ko'nikmalarni hosil qilish va sharq tilida o'quvchi oliy ta'lim muassasalariga maqsadli tayyorlash jarayonida o'quvchilarni test sinovlariga tayyorlashga ham qaratilgan. O'quvchi o'rganayottgan xitoy tilida ommabop tanish mavzulardagi matnlarda muayyan ma'lumotlar olish uchun o'qib, tushuna oladigan. shaxsiy hayot mavzularida qaydlar va xabarlarni yoza oladigan. Shaxsiy qiziqishlar, kundalik hayot mavzularida suhbat qiladigan va ommabop masalalar bo'yicha ma'lumot bera oladigan, hamda fikrini erkin va ravon bildira oladiga bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

**O'quv fanining maqsadi** – o'quvchilarga adabiy xitoy tili (Putonghua)ning nazariy va amaliy asoslari, talaffuzi, to'rt ohang va iyerogliflari haqida atroflicha bilim berish, ularda xitoy tilida erkin va to'g'ri mushohada yuritish, egallagan bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llash malakasini shakllantirish, soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot olib borish ko'nikmalarini berishdan iborat. Ikki yilga mo'ljallangan kurs mobaynida o'quvchilar xitoy tiliga oid fonetika, grammatika, og'zaki nutqni rivojlantirishga oid bo'lgan bilimlar bilan birga, tilning uslublari, tarjima nazariyasi va amaliyotiga oid ko'nikmalarga ham ega bo'lishlari e'tiborga olinadi.

**Fanning vazifasi** – nutq amaliyoti o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini, sharq tilidagi nutqiy qobiliyatini, xotirlash turlari, fikrlari, umumnutqiy va umumta'limiy yo'riqlarni, til bo'yicha mustaqil ishlash malakalarini rivojlantiradi. Xitoy tili darslarida turli nutqiy vaziyatlarga ta'alluqli bo'lgan autentik kasbiy-yo'naltirilgan fikrlarning asosiy mazmunini bir marotaba eshitishda to'liq tushunish va zaruriyat tug'ilganda undan aniq ma'lumotni ajratish; ro'y berayotgan voqea-hodisalar haqidagi yangiliklar va reportajlarni tushunish, shuningdek, ko'pgina filmlarni, agar ularning qahramonlari adabiy tilda gapirayotgan bo'lsa, mazmunini tushunish, kasbiy-yo'naltirilgan kommunikativ vaziyatlarga ta'alluqli erkin va standart dialoglarda ishtirok etish, o'z ona tili va xitoy tilida o'qilgan yoki tinglangan ko'pgina autentik fikrlar (diskurs) asosida tilga oid, nutqiy va mazmuniy tayanchlardan foydalangan holda mutaxassislikka yo'naltirilgan ma'lumotlarni ifodalash uchun monologlarning barcha turlarini tuzish, bu esa ta'limning ushbu bosqichida nutqning fan mazmuni asosidagi fanlararo aloqalardan foydalanishni nazarda tutadi.

**CEFR bo'yicha B1 darajasi uchun til ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar (xitoy tili misolida)**

**Tinglab tushunish**

Har kunlik hayotida uchraydigan turli xil mavzu hamda ishga tegishli bo'lgan nutqning ma'nosini tushununish, asl xitoylik gapirayotgan nutqni eshitib aniq tushuna olishga e'tibor qaratadi. Kundalik hayotda ishlatiladigan turli xil mavzularga tegishli bo'lgan, masalan, maktab, do'kon, sayohatda, dam olish va boshqa mavzularga oid bo'lgan tematik so'zlarni tinglab tushuna oladi. Shevada gapiruvchi xitoyliklarning adabiy tilda gapirayotgan paytda talaffuzidagi qanday farq borligini farqiga borish, gapning ma'nosini tushuna bilish. Televideniye va radio eshittirishlarni, ko'rgan video filmlarni ma'nosini qisman bo'lsada tushunish. Dars davomida asl xitoyliklarning adabiy tilidagi audio tasmalarini eshitish, darsdan tashqari o'quvchilarga xitoy adabiy tilidagi videolarni uyda ko'rib, tushunganlarini xitoy tilida gapirib berishlariga qaratiladi. Darslarda xitoy tilini bilish darajasi (HSK) dan tinglab tushunishga tegishli bo'lgan vazifalar berilib, bu vazifalarning natijalariga qarab o'quvchilarning tinglab tushunish darajasi tekshiriladi. Akademik litsey va kollej o'quvchilarining ushbu ko'nikamalarini darsda va darsdan tashqarida rivojlantirib borishlari uchun har darsda "til muhiti"ni yaratish uslublarini yaratishga ijodiy yondashish zarur. Turli manbalardan, jumladan, o'z sohasi va qiziqishlariga qarab manbalarni izlash madaniyati o'quvchilarga singdirib borilsa maqsadga muvofiq.

**Gapirish**

O'z sohasiga aloqador tanish mavzularda erkin va yengillik bilan muloqotga kirisha oladi. Bemalol xitoy tilida qiziqtirgan mavzusi yuzasidan savol berishi, berilgan savolga javob berishi, hamda o'z fikrini bemalol bildirishi kerak. O'zini bemalol tanishtira oladi, o'zi yashayotgan muhit, o'rganiyotgan sohasi hamda dunyoda yuz berayotgan voqea hodisalar haqida erkin suhbatlasha olishi kerak. Ancha mavhum mavzularda, masalan, madaniyat, kino, kitoblar haqida gapira oladi. Sayohat qilishga o'xshash holatlarda so'z boyligining ko'p qismini ishlata oladi. Tanish mavzularda tayyorgarliksiz so'zlashadi, o'z fikrini bildira oladi (oila, qiziqishlari, hissiyotlari, ish, sayohat, hozirda bo'layotgan voqealar). O'quvchilarning gaprish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun darsning har bir daqiqasini o'quvchilarni gapirtirishga undash, til muhitini yaratish, qiziqarli vaziyatlarni vujudga keltirib, o'quvchilar qaysi tilda gapirayotganini esdan chiqaradigan darajada o'yinlar tashkil qilish kerak. Buning uchun ushbu qo'llanmada ko'rsatilgan manbalardan foydalanish tavsiya qilinadi.

**O'qish**

O'zi qiziqqan mavzularda o'rtacha matnni bemalol va ravon o'qiy oladi. Matnda uchragan iyerogliflarning o'qilishi va ohangini to'g'ri talaffuz qila oladi. Matnda kerak bo'lgan joyda urg'u berishni, kerakli joyda to'xtab, har bir so'z (iyeroglif) qaysi iyeroglif bilan birga o'qilishini biladi va ajrata oladi. O'z kasbi, yoshi, qiziqishini qamrab oladigan matnlar bilan ishlay oladi va tushunadi. Asta-sekin o'smir yoshidan balog'at yoshiga o'tayotgan yoshlar uchun bu ko'nikmalar juda muhim ko'nikma hisoblanadi. Buning uchun o'qish ko'nikmasini rivojlantiradigan ko'nikmalar manbasiga murojaat qilish, xitoyliklarning adabiy tilda matnlarni o'qiy otganini o'quvchilar eshitib tinglashi, o'qituvchi tarqatma materiallarini mustaqil o'qishi va tarjima qilishi, internet orqali xitoy tilida yangiliklarni o'qishi (www.baidu.com saytidan foydalanib). ko'proq uyga vazifa berish, vazifalarning oddiydan murakkabga o'tish mexanizmini ishlatish tavsiya etiladi.

**Yozuv**

Birinchi bosqichda o'quvchilar Xitoy tili I-qism darsligi bo'yicha xitoy tili iyeroglifik yozuvdan tashkil topgani uchun, oquvchilarning yozuviga katta e'tibor qaratiladi. O'quvchilar xitoy tilini o'rganishni boshlashi bilan, ularga iyeroglifning tuzilishi, uni tashkil qiluvchi elementlari birma-bir tushuntiriladi, xitoy tilida iyeroglifning har bir elementi (chizig'i) o'zining qoidasi bilan yozilishi kerak bo'lganligi sababli, o'quvchilar iyeroglif yozish qoidalarini yoddan bilishlari shart. Iyeroglifларning kalitlari xitoy tilini o'rganishni boshlagan paytdan boshlab yodlashga berib boriladi. Iyeroglifларni sodda iyeroglifdan murakkab iyeroglifларga qarab o'rgatib boriladi. Iyeroglifлar qoida bilan o'quvchining kalligrafiya daftariga uch qatordan mahsus katakchalarga yoziladi, o'quvchi har dars bu iyeroglifлar daftarini tekshirib boradi hamda xato yozilgan iyeroglifларning to'g'ri yozilishini o'quvchilarga o'rgatib boradi.

O'quvchilar o'z fikrlarini har kunlik kundalik sifatida oz-ozdan yozib borsalar, birinchi darsdan ikkinchi darsga ularning ko'nikmalari rivojlanib borayotganini har doim o'zlari ham his qilib borishlariga e'tibor berilishi kerak. Yozuvda plagiatlik haqida tushuncha berib borish, imkon qadar uni tekshirib, o'quvchilarda bir-birining yozuviga nisbatan hurmatini o'stirib borilishi tavsiya etiladi.

Akademik litsey I bosqich o'quvchilari mutaxassislikka yo'naltirilgan xitoy tilini o'rganish jarayonida, mutaxassislikka kirish bosqichini o'taydilar, asosan, xitoy tili o'qituvchisi o'quvchilarni ko'proq mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor qaratadi. Bunda asosiy urg'u darsdan darsga mutaxassislikka oid so'zlar ko'lamini oshirishga qaratiladi. Birinchi bosqichda o'rganilayotgan so'zlar miqdori 800-1000 ta so'zni tashkil etadi.

II bosqichda "Xitoy tili" darsligi kitobinig birinchi qismi mustahkamlanadi va "Xitoy tili" kitobining ikkinchi qismiga o'tiladi. II bosqichda xitoy tilini o'rganish jarayoniga o'quv amaliyot ustasi kirib keladi. Jarayon xitoy tili o'qtuvchisi, o'quvchilar va amaliyot ustasi hamkorligida kechadi. Bunda 80% vazifa bevosita xitoy tili o'qituvchisi va 20% esa amaliyot o'qituvchisi hissasiga to'g'ri keladi. Bunda o'zlashtirilishi lozim bo'lgan so'zlar 1000-1200 so'zlar majmuini tashkil etadi. Ikkinchi bosqichning ikkinchi yarim yillik jarayonida to'liq vazifalar yuzasidan ustunlik so'zlashuv amaliyotiga 80% yuklatiladi hamda grammatikaga 20% yuklatiladi. Chunki bu bosqich o'quvchilalarning o'zlari tanlagan mutaxassislik bo'yicha bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olishi, turli ijtimoiy mavzularda erkin gaplasha olish qobiliyatini rivojlantirishga qaratiladi.

**Fan bo'yicha o'quvchilarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar**

"Akademik litseylarda xorijiy til (xitoy tili)" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchi:

– O'rganilayotgan tilning morfologik tuzilishi va tovush tizimi; o'rganilayotgan tildan o'qitish olib borilayotgan tilga tarjima qilish amaliyoti spesifikasi va stilistik xususiyatlari, me'yoriy grammatika asoslari **to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi;**

– O'rganilayotgan sharq tilining yozma, adabiy va og'zaki shakllari; tilning yozuv, grafik xususiyatlari, orfografiyasi, punktuatsiyasi, leksik-grammatik xususiyatlari, so'z yasalishi va uning tuzilishi, sodda va qo'shma gaplar, so'z birikmalari, leksika va yozma nutq, dialektik leksikaning asosiy xususiyatlarini **bilishi va ulardan foydalana olishi;**

– O'rganilayotgan tildagi adabiy matnlarni o'qitish olib borilayotgan tilga tarjima qila olish; o'rganilayotgan tilda chet ellik mutaxassislar bilan muayyan sohada va umumiy masalalarda to'laqonli jonli muloqot olib borish; murakkab bo'lmagan matnlarni o'qitish olib borilayotgan tildan asosiy o'rganilayotgan tilning hozirgi adabiy shakliga yozma tarjima qila olish; asosiy

o'rganilayotgan chet tilida muloqot qilish, nutq so'zlash; asosiy o'rganilayotgan chet tilidan o'qitish olib borilayotgan tilga suhbat **malakasiga ega bo'lishi kerak.**

**Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Xorijiy til (xitoy tili) chuqurlashtirilgan fanlar qatorida turuvchi fan hisoblanib, 1-4 semestrda o'qitiladi.

Ushbu o'quv fanini o'zlashtirish uchun o'quv rejasida ko'zda tutilgan gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy (O'zbekiston tarixi, jahon tarixi, ingliz tili, o'zbek tili, adabiyot), matematik va tabiiy-ilmiy fanlar (geografiya, biologiya) dan yetarli bilim hamda ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.

**Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

O'quvchilarning xorijiy til (xitoy tili) fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va yetakchi usullarini, interfaol uslublarni qo'llash, innovatsion pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Fanni o'qitish jarayonida darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, dars yo'riqlari, lug'atlar (elektron

lug'atlar), tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar, o'qitishning multimedia ishlanmalari, internet ta'lim saytlari, video va audio materiallardan foydalaniladi.

**2026-2027 o'quv yili 1-bosqich uchun xitoy tili fanidan mavzular taqsimoti**

| T/r | Fan bo'limlari va mavzular | Umumiy yuklama, soat | Shundan: | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Auditoriya yuklamasi | | | | | Mustaqil ish |
| | | | Jami | Nazariy | Amaliy | Laboratoriya | Seminar | |
| 1 | Xitoy tili haqida umumiy ma'lumot. Pinyin Fonetika Alifbo, harflar | **3** | **2** | | **2** | | | **1** |
| 2 | Yunmu va Shenmuç第一课。语音：shenmular f, s, sh, n, m, l, h va yunmular a, u | **3** | **2** | | **2** | | | **1** |
| 3 | 第二课：shenmular b, d, g, p, t, k,c, ch Yunmular o, e, ai, ei, ao, ou | 3 | 2 | | 2 | | | 1 |
| 4 | Ohang. Ohang o'zgaruvchanlik xususiyati<br>第三课。Yunmular ar, an, in, en, ang, eng, ing, ong | 4 | 2 | | 2 | | | 2 |
| 5 | OrfografiyaçXitoy tilidagi asosiy imlo chiziqlari 第四课。<br>Shenmular j, q, x, z, zh, yunmular –I, -ia, I,-ie. iao, ian, iang, iong | 3 | 2 | | 2 | | | 1 |
| 6 | Transkripsiya qoidalari(1)Transkripsiya qoidalari(2) "y" va "w" ning vazifasi<br>**期中考试** | 3 | 2 | | 2 | | | 1 |
| 7 | Xitoy tilida iyerogliflarni asosiy yozilish tartib qoidalari | 3 | 2 | | 2 | | | 1 |
| 8 | Transkripsiya qoidalari (3) "er"lashish va "er"lashgan yunmu | 3 | 2 | | 2 | | | 1 |
| 9 | Xitoy yozuvida iyerogliflarning asosi bo'lmish kalitlar | 3 | 2 | | 2 | | | 1 |
| 10 | 第6 课 yunmular u, ue, uan, un, er<br>第7课 yangi so'zlari | 3 | 2 | | 2 | | | 1 |
| 11 | Morfologiya . Gram:是ishtirokidagi gaplar; umumiy so'roq gap吗 | 3 | 2 | | 2 | | | 1 |
| 12 | Tasdiq inkor gaplar **期中考试** | 3 | 2 | | 2 | | | 1 |
| 13 | Xitoy tilida sifat va uning o'ziga hosligi | 3 | 2 | | 2 | | | 1 |
| 14 | Sifat aniqlovchi gaplar | 3 | 2 | | 2 | | | 1 |
| 15 | Son: sanoq va tartib sonlar xususiyatlari<br>Grammatika: 1-100gacha bo'lgan sonlar. | 3 | 2 | | 2 | | | |
| 16 | Sananing ifodalanishi, yil, oy, kun ,haftaning ifodalanishi Xitoy tilida chama sonlar<br>Mashqlar bajarish-2-3-4-5-6-7-8 | 3 | 2 | | 2 | | | 1 |
| 17 | Olmoshning xitoy tilida ifodalanishi | 4 | 2 | | 2 | | | 2 |
| 18 | Yakuniy nazorat. O'tilganlarni takrorlash | 2 | 2 | | 2 | | | |
| | **Jami** | **54** | **36** | | **36** | | | **18** |

**2-semestr**

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Xitoy tilida fe'lning xususiyatlari<br>Grammatika fe`l+otning qo'llanilishi | 2 | 2 | | 2 | | | 1 |
| 2 | Xitoy tilida vaqtning ifodalanishi, Fe`l sifatli gaplar | 3 | 2 | | 2 | | | 1 |
| 3 | Grammatika fe`l-kesimli gaplar | 3 | 2 | | 2 | | | 1 |
| 4 | So"roq olmoshlari yordamida yasalgan so"roq gaplar | 3 | 2 | | 2 | | | 1 |
| 5 | Dialog 后天是我姐姐的生日 | 3 | 2 | | 2 | | | 2 |
| 6 | Xitoy tilida ko`makchi fe`llar了yordamchi so`zi 期中考试 | 3 | 2 | | 2 | | | 1 |
| 7 | Grammatika kelasi zamon tugallanganligini anglatuvchi so'zlar | 3 | 2 | | 2 | | | 1 |
| 8 | Grammatika: Xitoy tilida natijaviy fe`llarning qo`llanilishi | 3 | 2 | | 2 | | | 1 |
| 9 | 离，从，往predloglari. Xitoy tilida fe`llarning ikkilanishi | 3 | 2 | | 2 | | | 1 |
| 10 | Diktant 诚实的孩子 | 3 | 2 | | 2 | | | 1 |
| 11 | Ravish va uning gapdagi o'rni. 又ravishining qo`llanilishi | 3 | 2 | | 2 | | | 1 |
| 12 | Gram 都，还ravishlari 期中考试 | 3 | 2 | | 2 | | | 1 |
| 13 | Yordamchi so'z turkumlari va hisob so'z tushunchasi | 3 | 2 | | 2 | | | 1 |
| 14 | 次，回 Hisob so`zi | 3 | 2 | | 2 | | | 1 |
| 15 | Sintaksis So'z birikmasi | 3 | 2 | | 2 | | | 1 |
| 16 | Matn. 伊万是俄罗斯人 Iyerogliflar tahlili | 3 | 2 | | 2 | | | 1 |
| 17 | Sodda gaplar Grammatika: 呢 ko'rinishidagi noto'liq so`roq gap.<br>O`qish un matn 我住1302号房间 | 3 | 2 | | 2 | | | 1 |
| 18 | Yakuniy nazorat. O`tilganlarni takrorlash | 3 | 2 | | 2 | | | |
| | Jami | 54 | 36 | | 36 | | | 18 |

## MUSTAQIL ISHNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI

Fan bo`yicha o`quvchilarga mustaqil ish uchun 36 soat ajratilgan. Mustaqil ishni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi: ayrim nazariy mavzularni o`quv adabiyotlari yordamida o`zlashtirish; amaliy mashg`ulotlar uchun topshirilgan, mavzuga doir masalalar, keys-stadi va o`quv loyihalarini Axborot resurs markazi manbalari ma`lumotlarini to`plagan holda bajarish.

O`quvchilarning mazkur fan bo`yicha mustaqil ishini tashkil etilishini nazorat qilish va baholash uslubiy ko`rsatmalar asosida olib boriladi.

O`quvchilar mustaqil topshiriqlarni tayyorlash jarayonida quyidagi ko`rsatmalardan foydalanishlari tavsiya etiladi:

- darslik, o`quv va uslubiy qo` llanmalar, ma'ruza matnlari va dars yo`riqlaridan kurs mavzularini o`rganish;
- xitoy tili fonetikasi turkumiga tegishli mavzularni o`zlashtirish;
- xitoy tili leksikologiyasi va grammatikasini tahlil etish;
- xitoy tilining gap qurilishi va uslublarini bilish.

– Xitoy tili fanidan mustaqil ta`lim sifatida o`rganiladigan quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

### 1-SEMESTR

| | Mavzu | So at | Mustaqil ish turi | Ber sana | Top sana |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Mening bir kunim | 1 | Mavzuga oid taqdimot tayyorlash | | |
| 2 | Mening oilam | 1 | Mavzu asosida referat yozish | | |
| 3 | Ohang. Ohang o'zgaruvchanlik xususiyati Yunmular ar, an, in, en, ang, eng, ing, ong | 2 | Mavzuga oid taqdimot tayyorlash | | |
| 4 | Transkripsiya qoidalari(1) Transkripsiya qoidalari(2) "y" va "w" ning vazifasi | 1 | Mavzu asosida referat yozish | | |
| 5 | Xitoy tili darsida. 在汉语课。 | 1 | Mavzuga oid taqdimot tayyorlash | | |
| 6 | Mening litseyim. 我的高中学校。 | 1 | Mavzu asosida referat yozish | | |
| 7 | Xitoy tilida iyerogliflarni asosiy yozilish tartib qoidalari. | 1 | Mavzuga oid taqdimot tayyorlash | | |
| 8 | Xitoy yozuvida iyerogliflarning asosi bo‘lmish kalitlar | 1 | Mavzu asosida referat yozish | | |
| 9 | Mening qiziqishlarim. 我的爱好。 | 1 | Mavzuga oid taqdimot tayyorlash | | |
| 10 | Eng yaqin do‘ stim. 我的好朋友。 | 1 | Mavzu asosida referat yozish | | |
| 11 | Xitoy yozuvida iyerogliflarning asosi bo‘lmish kalitlar | 1 | Mavzuga oid taqdimot tayyorlash | | |
| 12 | 第 6 课 yunmular u, ue, uan, un, er<br>第 7 课 yangi so‘zlari | 1 | Mavzu asosida referat yozish | | |
| 13 | Morfologiya.Gram:是ishtirokidagi gaplar; umumiy so‘roq gap吗 | 1 | Mavzuga oid taqdimot tayyorlash | | |
| 14 | Sabzavotlar 蔬菜。 | 1 | Mavzu asosida referat yozish | | |
| 15 | Xitoy tilida meva va hayvon nomlari. 动物和水果。 | 1 | Mavzuga oid taqdimot tayyorlash | | |
| 16 | Tasdiq inkor gaplar Xitoy tilida sifat va uning o'ziga hosligi. Sifat aniqlovchi gaplar | 2 | Mavzu asosida referat yozish | | |
| | **JAMI** | 18 | | | |

### 2-SEMESTR

| | Mavzu | Soat | Mustaqil ish turi | Ber sana | Top sana |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Yil fasllari | 1 | Mavzuga oid taqdimot tayyorlash | | |
| 2 | Son sanoq va tartib sonlar xususiyatlari | 1 | Mavzu asosida referat yozish | | |
| 3 | Sananing ifodalanishi. yil, oy, kun ,haftaning ifodalanishi | 1 | Mavzuga oid taqdimot tayyorlash | | |
| 4 | Olmoshning xitoy tilida ifodalanishi | 1 | Mavzu asosida referat yozish | | |
| 5 | Atrofimizdagi olam | 1 | Mavzuga oid taqdimot tayyorlash | | |
| 6 | Xitoy tilida fe'lning xususiyatlari | 1 | Mavzu asosida referat yozish | | |
| 7 | Xitoy tilida vaqtning fodalanishi Fe`l sifatli gaplar | 1 | Mavzuga oid taqdimot tayyorlash | | |
| 8 | Vaqt, soat, daqiqaga oid so`zlar | 1 | Mavzu asosida referat yozish | | |
| 9 | Dialog. 后天是我姐姐的生日 | 2 | Mavzuga oid taqdimot tayyorlash | | |
| 10 | Xitoy tilida ko`makchi fe`llar 了 yordamchi so`zi | 1 | Mavzu asosida referat yozish | | |
| 11 | Kutubxonada | 1 | Mavzuga oid taqdimot tayyorlash | | |
| 12 | Kelasi zamon tugallanganligini anglatuvchi so‘zlar | 1 | Mavzu asosida referat yozish | | |
| 13 | Xitoy tilida natijaviy fe`llarning qo`llanilishi | 1 | Mavzuga oid taqdimot tayyorlash | | |
| 14 | 离，从，往 predloglari Xitoy tilida fe`llarning ikkilanishi | 1 | Mavzu asosida referat yozish | | |
| 15 | Kitoblar olami | 1 | Mavzuga oid taqdimot tayyorlash | | |
| 16 | Ravish va uning gapdagi o'rni 又ravishining qo`llanilishi | 1 | Mavzu asosida referat yozish | | |
| 17 | Yordamchi so'z turkumlari va hisob so'z tushunchasi | 1 | Mavzuga oid taqdimot tayyorlash | | |
| **JAMI** | | 18 | | | |